

R. TURSUNOV  
B. SHOMAGDIYEVA

# XOR DIRIJYORLIGI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS TA'LIM MARKAZI

R. TURSUNOV, B. SHOMAGDIYEVA

## XOR DIRIJORLIGI

*Madaniyat, san'at kollejlari va akademik litseylarning xor dirijorligi  
sinfi uchun o'quv qo'llanma*



## KIRISH

Ma'naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri, bu «Xor dirijorligi san'atidir». Zero, san'at inson qalbini go'zallikka chorlaydi, nafosatga undaydi. Ruhiy tuyg'ularining rivojlanishiga ko'mak beradi. Ma'naviy dunyosini boyitadi. Xalqimizning barcha rivojlanish davrlarida jamoa bo'lib (xor bo'lib) kuylash ko'ngil ozuqasi sifatida bebaho ma'naviy kuch bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kunga kelib «Xor dirijorligi» fanini o'qitish tizimi shakllangan bo'lib, unda musiqiy ta'lim uzluksiz amalga oshirilmoqda. Avvalo, xor jamoasi rahbari yuqori malakali savodxon dirijordir. Bo'lajak yosh mutaxassislar mashg'ulot paytlarida dirijorlik texnikasining asosiy xususiyatlari (usullari)dan mohirona foydalana olish malakalarini hosil qilishi lozim.

Mazkur qo'llanma respublika san'at va madaniyat kollejlari hamda musiqiy akademik litsey o'qituvchilari va o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan madaniyat instituti, musiqa pedagogika fakulteti talabalari ham foydalanishlari mumkin.


Qo'llanmaning asosiy maqsadi o'quvchilarni respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin yaratilgan O'zbekiston kompozitorlarining xor asarlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Qo'llanma xor dirijorligi kursi dasturi asosida yozilgan bo'lib, litsey va kollej o'quvchilariga mo'ljallangan. O'rganish va ijro etish uchun kiritilgan asarlar mazmun jihatidan turlicha bo'lib, tartib asosida joylashtirilgan.

Qo'llanmada barcha asarlarning qisqacha annotatsiyasi berilgan. Unda har bir asarning mazmuniga xos xususiyati, dirijorlik ijrochiligi jihatidan amalda bajariladigan aniq vazifalar alohida ta'kidlab o'tilgan.

Dirijor apparatining o'rnatilishi (постановка), qo'llarni boshqarish mashqlari, auf-takt, uni ijro etish texnikasi, dirijorlik ta'limining boshlang'ich davrida o'quvchilarning zehni sezish va eshitish qobiliyatlarini o'stirishda asosiy omildir. Dirijorlik harakatlarini ko'rsatish, nafas olish, kuylashni boshlash, tamomlash (to'xtatish)ni o'rgatish, o'quvchining taktdagi kuchli va kuchsiz hissalarini seza olish qobiliyatini rivojlantirib boriladi. Dirijorlik sxemalari, uning tuzilishi aniq tushunilgusiga erishmoq zarur. Dirijorlik sxemasining asosi bo'lgan qat'iy «bir» tushunchasini to'liq o'zlashtirib olishga jalb qilishga erishmoq lozim.

Mazkur o'quv qo'llanma ikki qismdan iborat: 1. Uslubiy ko'nikmalar. 2. Musiqiy asarlarga tizimlar va nota namunalari.



## USLUBIY KO'NIKMALAR

Dirijorlik texnikasining eng muhim asoslarini uslubiy qism o'z ichiga oladi: dirijorlik holatining to'g'ri o'rnatilishi; xor dirijorini shakllantirish; gavda, bosh va qo'llarning to'g'ri holatda bo'lishi; dirijorlikning asosiy ishoralari: aniqlik, usullik, tejamkorlik, dinamik bo'yoqlarni sezib olish qobiliyati; xor partiturasini o'rganish jarayomida dirijorning maqsad vazifalari: to'g'ri nafas olish va kuylay boshlash, kuylashni tamomlash yo'llarini aniq his etish va uni to'xtatishga erishish vazifalari to'g'risida ma'lumotlar va hokazo.

Nota yozuvi qismida barcha asarlarning qisqacha annotatsiyasi berilgan. Shuningdek, har bir asarning mazmuniga xos xususiyati, dirijorlik jihatdan amalda bajariladigan aniq vazifalar bayon etilgan.

Shuningdek, tahliliy materiallar mualliflarning ko'p yillik amaliy tajribalariga tayanib mustaqil yoritilgan.

«Dirijorlik» fani mashg'ulotlari o'quvchilarda musiqa san'atiga muhabbat tuyg'ularini va badiiy didni o'stiradi.

O'quvchi o'zbek kompozitorlarining asarlari va xalq qo'shiqlarining qayta moslashtirilgan shakllari bilan tanishish jarayonida, ularning dunyo qarashlari uzluksiz kengaya boradi.

Qo'llanmaga kiritilgan asarlar xor partituralarini o'qish, o'quv yurtlarining xor dirijorligi sinfi bo'yicha o'quv repertuarlari sifatida katta yordam ko'rsatmog'i hamda ularning xor jamoalari repertuarlaridan o'rin olmog'i mumkin.

Ushbu qo'llanmadan foydalanib, dirijorlik mahoratini egallashga ahd qilgan har bir o'quvchi san'atni katta ruhiy kuch bilan jon dilidan sevishi, beriladigan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarib borishi, dirijorlik mahoratini puxta egallashi, muntazam fidoyi mehnat qilishga o'rganib borishi alohida ahamiyatga ega.

«Dirijorlik» fani mashg'ulotlarida o'quvchilarda quyidagicha aniq bilimlar va yetuk malakalar hosil qilish mo'ljallanadi:

- dirijorlik texnikasi elementlarining eng muhim asoslarini takomillashtirish;
- dirijorlik repertuarlarining to'liq tahliliy sharhini egallash malakasini o'stirish;
- dirijorlik sinfi uchun yaratilgan yangi asarlar va xor uchun moslashtirilgan xalq qo'shiqlarini tahlil qila olish malakalarini egallashga ahamiyat berish;
- tabiiy nutq ohangiga asoslangan holda ovoz partiyalarini to'g'ri ijrochilik malakalari bilan yarim yopiq va ochiq ovoz shakllanish yo'llarida ifodali kuylay olish mahoratini o'stirish;
- dirijorning partituraning yaxshi o'rganish, uni fortepianoda chalish mahoratini oshirish.

Mazkur fan bo'yicha o'quvchilarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

O'quvchilarning mazkur fanni o'zlashtirishlari va olgan bilimlariga qarab, har bir semestr davomida imtihon topshirish shaklida baholanib boradi.

### 1-bosqich

Birinchi bosqichda o'qituvchining asosiy maqsadi o'quvchida dirijorlik fani xususiyatlarini shakllantirish: gavda, bosh va qo'llarning to'g'ri holatda bo'lishi, dirijorning asosiy ishoralarini takomillashtirishga erishish vazifasi turadi. O'qituvchi o'quvchining kuylashni boshlash yo'llarini — diqqatni bir nuqtaga to'plash, nafas olish, kuylay boshlash, kuylashni tamomlash yo'llarini egallash, uni tamomlashga o'tish, to'xtatishga tayyorlash va to'xtatish kabi dirijorlik texnikasini o'zlashtirib olishga harakat qilmog'i lozim.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning taktdagi kuchli va kuchsiz hissalarini seza olish qobiliyati o'stirib boriladi. Nuqta takt asosiy hissalarining kuylash chegarasi bo'lib, 3/4; 2/4; 4/4 kabi ~~dirijorlik~~ sxemalarida o'rganiladi, uning tuzilishi aniq bo'lishiga erishmoq kerak. O'quvchilarning ~~dirijorlik~~ har qanday dirijorlik sxemasining asosi bo'lgan aniq va qat'iy «bir» tushunchani yaxshi o'zlashtirib olishga jalb qilish zarur.

1. 3/4; 4/4; 2/4 o'lchovlarida (mo'tadil va o'rtacha harakatda *non legato*, *legato* xarakterdagi, tovushlarning *mf* va *f* dinamik tuslarida) asarlarga dirijorlik qilish.

2. Kuylashni taktning har xil hissalaridan boshlash yo'llarini o'rganish.

3. Fermatolarning ahamiyati va ijro etish uslublarini o'rganish.

4. Musiqa asarini jumalarga ajratish, jumlar o'rtasidagi pauza, nafas olish, talaffuzga e'tibor berib dirijorlik qilish.

Birinchi bosqich o'quv jarayonida o'quvchi 14—15 ta asarni, shu jumladan, 4 ta maktab repertuarini (1—2-sinf) o'rganishi lozim.

Birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishda o'quvchi 4 ta asarga dirijorlik qilishi kerak (a-kapella jo'rsiz va jo'rnavozlik bilan).

## 2-bosqich

Ikkinchi bosqichda o'quvchilar birinchi bosqichdagi «Dirijorlik» fani yuzasidan egallagan bilim va malakalarini mukammal takomillashtirishlari lozim.

1. O'ng va chap qo'l vazifalarini o'rganish. Asarning dinamik belgilarida, turli ovozlarni boshlash paytida, cho'zilgan tovushlarni saqlab turish hollarida chap qo'lning mustaqilligi. Qo'shiq ijrosidagi usul tasviriga muvofiq har bir qo'lning mustaqil harakati.

2. 6/8, 6/4 o'lchovlarini vazmin sur'atda «olti»ga, tez sur'atda «ikki» shaklda dirijorlik qilish, 6/8 sekin tempda (2+1+2+1); tez tempda (3+3) «ikki»ga, 6/4 sekin tempda (2+1+2+1); tez tempda (3+3).

3. 5/8, 5/4 o'lchovlarini vazmin sur'atda «besh»ga tez va mo'tadil sur'atda «ikki» shaklda (2+3 va 3+2) dirijorlik qilish.

4. 3/2, 3/8 o'lchovlarini vazmin sur'atda «uch»ga tez va mo'tadil sur'atda «bir» shaklda dirijorlik qilish. Stakkato usulida asosiy metrik birlikni 3/4, 4/4, 2/4 o'lchovlarida og'ir sur'atda alohida urg'u berib — ajratib dirijorlik qilish.

5. Sur'at o'zgarish: *piu mosso*, *meno mosso* tezlashtirish, sekinlashtirish, qisqartirish, kengaytirish 4/4 o'lchovida *alla brevo* dirijorlik qilish.

6. Fermata va ularning ahamiyati, ijro etish uslublari tugallanmaydigan fermata tez sur'atda 3/4, 3/8 o'lchovlarida «bir»ga dirijorlik qilish.

7. Turlicha dinamik tuslar: *crescendo*, *diminuendo*, *subito forte*, *subito piano*, *pp*, *ff*, *sf* larni badiiy jihatdan his etib, aniq ko'rsatib dirijorlik qilish.

8. Sinkopa va aksentlarni alohida urg'u berib, o'z vaqtida ko'rsatib, dirijorlik qilishni o'quvchiga singdirish.

9. Jo'rsiz xor asarlari ustida ishlash jarayonida ovozlarning sof sadolanishi uchun tiniq jarangdor sozga erishishni ta'minlash.

Ikkinchi bosqichda o'quvchi 14—16 ta asar, shu jumladan, 4 ta maktab repertuaridan asarlar, 2—3 ta murakkab asarlar o'rganishi lozim.

Ikkinchi bosqichdan uchinchi bosqichga o'tishda 4 ta asarga dirijorlik qilish kerak (a-kapella jo'rsiz va jo'rnavozlik bilan).

## 3-bosqich

Uchinchi bosqichda o'quvchilarning quyi kurslarda dirijorlik fani yuzasidan egallagan bilim va malakalarini mustahkamlash.

1. Turli dinamika va sur'atda bo'lgan 7/4 va 7/8 o'lchovlarini vazmin sur'atda «yetti» ga hamda tez va mo'tadil sur'atda «uch» ga (2+2+3 va 3+2+2) va «ikki» ga (3+4 va 4+3) dirijorlik qilish.



2. 9/4 va 9/8 o'lchovlarini vazmin sur'atda «to'qqiz»ga hamda tez va mo'tadil sur'atda «uch»ga (3+3+3) dirijorlik qilish.

3. 12/4 va 12/8 o'lchovlarini vazmin sur'atda «o'n ikki» hamda tez va mo'tadil sur'atda «to'rt»ga (3+3+3+3) dirijorlik qilish.

4. 11/4 o'lchovini tez sur'atda «besh»ga (2+2+2+2+3); 2+2+2+3+2; 2+2+3+2+2; 2+3+2+2+2; 3+2+2+2+2 dirijorlik qilish.<sup>1</sup>

5. Uchinchi bosqichning beshinchi semestrda o'quvchi jo'rsiz xor asariga yozma annotatsiyani komissiyaga taqdim etishi kerak.

6. O'quvchi jo'rsiz va jo'rli xor asarlari partiturasini yoddan chalishi, ovozlarni yoddan kuylashi va vertikal ohanglarni nota matni orqali kuylashi kerak.

7. O'quvchi beshinchi semestrda 4 ta asarga dirijorlik qilishi kerak (a-kapella jo'rsiz va jo'rnavozlik bilan).

6-semestrda dirijorlik fanidan yakunlov bosqichida o'qituvchi oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Uch yil davomida o'quvchilar tomonidan «Dirijorlik» fanidan olgan bilimlarini davlat imtihoniga mo'ljallangan diplom dasturi asosida xor jamoasi bilan ishlashga tayyorlash.

2. Xor jamoasi bilan ishlash jarayonida dirijorlik sinfida egallagan bilim va malakalarini sifat darajasida ko'rsata olishga jiddiy ahamiyat beriladi.

3. Davlat imtihoni, diplom dasturi, bitiruvchi o'quvchining va xor jamoasining imkon darajasi hisobga olingan holda, o'qituvchi tomonidan mukammal o'ylangan holda tanlanmog'i kerak.

4. Diplom dasturi ustida ijodiy ishlash jarayonida, muayyan tiniq sozni, ushlash va o'zgaruvchan dinamik tuslarni sifat darajasida ko'rsata bilish borasida mumkin bo'lgan dirijorlik ko'nikmalarini takomillashtirib, ko'rsata olishiga alohida e'tibor beriladi.



5. O'quvchi Davlat imtihonida xor jamoasiga tanish bo'lmagan jo'rsiz xor asarini 10—15 daqiqada o'rgatishi kerak.

---



<sup>1</sup> N. Qoziyev. Xor dirijorligi xrestomatiyasi. 4-qism., 5-bet.

## DIRIJORLIK QILISH SXEMALARI



3/4





4/4





2/4





6/4, 6/8 «ikki»ga







♩ (alla brevo) «ikki»ga




5/8 «ikki»ga







7/8 «uch»ga



9/4; 9/8 «uch»ga 3/8 «bir»ga



6/8 «olti»ga 9/8 «to'qqiz»ga





«O'zbekman». Mazkur asar to'rt (2/4) hissalı o'lovda yozilgan bo'lib, dirijor ishoralarining tantanali marshga xos xususiyatli bo'lishini talab qiladi. E'tibor chap qo'lnıng to'xtatılıshı va o'ng qo'lnıng mustaqil harakat qilishiga qaratiladi. Asarning boshlamishida yakkaxon, keyin (naqarotda) xor kuylaydi. Asardagi asosiy vazifa aniq va dadil dirijorlik harakatidir. Bundan tashqari, o'quvchidan ritmik tasvirning aniq bo'lishi va birinchi hissada chap qo'l harakatini to'xtatishni talab qilish lozim. Xor boshlanishi oldidan uchraydigan to'rtinchi (takt oldi) hissani alohida ta'kidlash lozim.

## O'ZBEKMAN

(Xor va orkestr uchun qo'shiq)

A. Oripov she'ri

R. Tursunov musiqasi

Marsh tempida

The musical score is written for piano and voice. It begins with a piano introduction in 2/4 time, marked *f* (forte). The piano part consists of two staves. The vocal part enters in the third measure with the lyrics: "Yan - gi bir asr - ning os - to - na - si - dan Ye-tish dim... um-rim - ning". The vocal line is written on a single staff. The piano accompaniment continues with chords and rhythmic patterns. The lyrics continue: "qut - lug'yo-shi - ga ti - lim - da shuk - ro - na, di-lim - da g'u - lu". The score ends with a final piano chord.

Ta-rix sar - ko - ti - bin \_\_\_\_\_ kel - dim qo - shi - ga

Ya-sha - dim yov - lar - ga bo' - yin eg - ma - yin Bu-gun o'z

§

<p>Qaytarish uchun</p>	<p>Tamomlash uchun</p>
------------------------	------------------------

er - ki - ga e - rish - gan xalq - man Xalq - man

Mana, men o'zbekman, qo'limda tug'im  
 Va barcha a'molim bitilgan kitob.  
 Shuning ichidadir borim va yo'g'im,  
 Shuning ichidadir men uchun oftob.

O'zbekman, gohida iqbolim kulib,  
 Gohida o'zimdan chiqqan ofatim.  
 Dunyoni olsam-da, jahongir bo'lib,  
 Go'dak yig'isiga yo'qdir toqatim.

Yashadim yovlarga bo'yin egmayin,  
 Bugun o'z erkiga erishgan xalqman.

Yashadim yovlarga bo'yin egmayin,  
 Bugun o'z erkiga erishgan xalqman.

«Vatan qo'shig'i». (3-qismli suite). 1-qism. Asarning vatanparvarlik mazmunidagi xususiyati o'quvchini milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalaydi.

Asar o'quvchining 2/4 dirijorlik sxemasi asosida ilgari egaliagan dirijorlik malakasini o'stirishga yordam beradi. Dirijorlik ishoralari asta-sekin kengayib boradi, chunki asarning boshlanishida yakkaxon ijro, keyin xorning kuylashida (naqarotda) dirijorlik ishoralari keng ko'lamli bo'lishi lozim.

Asarning xarakteri yengil, aniq ishoralar bilan ko'rsatilmog'i kerak. Chap qo'lda xorni aniq uzish va kuylashdan keyin jo'rni (o'ng qo'lda) aniq ko'rsatib berish talab qilinadi.

Asarning xilma-xil dinamik tuslari dirijorlikning ma'nohi, jozibali bo'lishiga yordam berishi kerak.

## VATAN QO'SHIG'I

### I-qism

B. Boyqobilov she'ri

G'. Qodirov musiqasi

Marsh tempida



ga mash - hur Kim - ki -

un - ga qo'y - sa qa - dam, Ko'ng - li - ga bo' -

Naqarot  
lur man - zur O'z - be - kis -

ton bor bo'l - sin, Bax - ti bar - qa - ror bo'l -

sin bo'l - sin Is - tiq bo - li

nu - raf shon. Un - ga sha - raf, un - ga

Qaytarish uchun

shon un - ga - shon!

Men hur Vatan farzandiman,  
Nomi jahonga mashhur.  
Kimki unga qo'ysa qadam,  
Ko'ngliga bo'lur manzur.

Erk, istiqlol chamani bu,  
Toleyi porloq diyor.  
Yuragida ulug' orzu,  
Fuqarosi baxtiyor.

Mustaqillik ohangida  
Jo'rdir she'riyat sozi.  
Mening yangroq qalbimda ham,  
Shu dilbar soz ovozi.

Naqarot:

Naqarot.

Naqarot.

O'zbekiston bor bo'lsin,  
Baxti barqaror bo'lsin.  
Istiqboli nurafshon,  
Unga sharaf, unga shon.

O'zbekiston bor bo'lsin,  
Baxti barqaror bo'lsin.  
Istiqboli nurafshon,  
Unga sharaf, unga shon.

O'zbekiston bor bo'lsin,  
Baxti barqaror bo'lsin.  
Istiqboli nurafshon,  
Unga sharaf, unga shon.



«Istiqlol farzandi». 2-qism. Milliy istiqlol g'oyasini tarannum etuvchi bu asar 3/4 sxemasini o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi. Asarning mazmunini yoritib berish ko'pincha barcha dirijorlik hissalarining qo'l harakatlari bilan ko'rsatilishiga, marsh sur'atining saqlanishiga, kuyning ohangdorligiga va uning dinamik belgilariga bog'liqdir. Asar usul jihatidan murakkab emas, bunda kuylashning uchinchi hissada uzilishini aniq ko'rsatish kerak. Bularning hammasi dirijorlik texnikasining boshlang'ich malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishga imkon beradi.

## ISTIQLOL FARZANDI

### 2-qism

*B. Boyqobilov she'ri*

*G'. Qodirov musiqasi*

Marsh tempda

The musical score is written for a vocal line and piano accompaniment. The key signature has two flats (B-flat and E-flat), and the time signature is 3/4. The tempo is marked 'Marsh tempda'. The score consists of three systems of music. The first system shows the beginning of the piece with a piano introduction marked 'mf'. The second system contains the first line of lyrics: 'Is - tiq - lol bon - gi yang - rar biz - ning'. The third system contains the second line of lyrics: 'o - zod o'l - ka - da Har ku - ni - miz u - lug'. The piano accompaniment features a steady eighth-note pattern in the right hand and a more complex bass line in the left hand, often using chords and single notes.



lan O'z - be - kis - ton bax - ti - yor Meh - nat -

si - ga - va - fo - dor. Meh - nat - kash xal - qi - bi -

da Bun - da ham - ma so - hib - kor Va' - da -

Nagari

vor bag' - ri - bod o' - ka - da o' - ka -

1.

1.   
 kash xal - qi bi - lan O'z - be - kis - ton bax - ti -   
 yor lan O'z - be - kis - ton bax - ti - yor   
 *ff*

Istiqlol bongi yangrar,  
Bizning ozod o'lkada.  
Har kunimiz ulug'vor,  
Bag'ri obod o'lkada.

Naqarot:

Bunda hamma sohibkor,  
Va'dasiga vafodor.  
Mehnatkash xalqi bilan,  
O'zbekiston baxtiyor.

Kifti yerga tegmagan,  
Pahlavonlar yurti bu,  
Maydonda tinch turmagan,  
Mart insonlar yurti bu.

Naqarot.

El ishiga bel bog'lab,  
Ulg'aymoqda yosh avlod.  
Otalari singari  
Yurtini qilur obod.

«Muborak». 3-qism. Bu asar 6/8 o'lchovida jo'rsiz xor uchun yozilgan. Qo'shiq yengil ikki qismada dirijorlik qilinadi. Birinchi hissada chap qo'l harakatini to'xtatishni talab qilish lozim. Asar ijrosi ohangdor mayinlikni talab qiladi. Birinchi hissani sezilarli aniq ko'rsatish kerak. Jo'rsiz xorning o'ziga xos xususiyati, tiniq jarangdorligini kompozitorning maqsadiga mos ijro qilish zarur. O'ng qo'l asarning uzluksiz harakatini ko'rsatayotganda chap qo'l ritm tasvirini ushlab, birga uzish kerak.

## MUBORAK (a-kapella) 3-qism

B. Boyqobilov she'ri  
Tezroq

G'. Qodirov musiqasi

mf Va...

mp Bax - ti - yor do'stu qa - dir - don u - lug' - ay - yom mu - bo - rak



Yurt dov - ru - g'i bo'l - di dos - ton sha - ra - fu shon mu - bo - rak!  
U - lug' ay - yom mu - bo - rak!

Ko' - rib hur - lik bay - ro - g'in,  
(a) Ko' - rib hur - lik bay - ro - g'in

Tong bi - lan yo'n - dim qa - lam  
(a) tong bi - lan yo'n - dim qa - lam.

TERMIZ SAN'AT KOLLEJI  
INVENTAR № 20726  
AXBOROT RESURS MARKAZI

TERMIZ  
20726  
23. 02. 07



Baxtiyor do'st-u qadirdon  
 Ulug' ayyom muborak!  
 Yurt dovruq'i bo'ldi doston,  
 Sharaf-u shon, muborak!

Naqarot:

Ko'rib hurlik bayrog'in,  
 Tong bilan yo'ndim qalam.  
 Bir umrga kutganim,  
 Qutlug' ayyom muborak!

Sizga yurak olqishim,  
 Quyosh kabi bolqishim.  
 El-u yurt bayrami bu,  
 O'zbekiston, muborak!

«Chamandagi gullarmiz». Bu qo'shiq yengil va xushchaqchaq kayfiyatda 2/2 sxemada ijro etiladi. Asarda kelajak avlodning kuchli, botir bo'lib o'sishi haqida kuylanadi. Qo'shiq bir ovozli ijroda boshlanib, naqarotda uch ovozli «qizlarmiz», «o'g'illarmiz» ohang matni birinchi qizlar, ikkinchi o'g'il bolalar almashib ijro etishi, qo'shiqning badiiy ijrosini boyitadi.

Shuningdek, o'quvchidan asar ustida jiddiy ishlash va asar mazmuni dirijorlik ishoralari orqali ishonchli yoritib berilishi talab qilinadi.

## CHAMANDAGI GULLARMIZ

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Tez

*f*

Biz - lar ko'p - miz dun - yo - da, \_\_\_\_

Suv oq - qan - day dar - yo - da, \_\_\_\_

Biz yur - sak qa - top - la - shib —

Ko' - cha - lar ke - tar to - shib —

Naqarot:

Qiz - lar miz —

o - g'il - lar - miz —



Cha-man - da - gi gul - lar - miz, cha-man - da - gi gul - lar - miz

Qiz - lar - miz o - g'il - lar - miz

Bizlar ko'pmiz dunyoda,  
Suv oqqanday daryoda,  
Biz yursak qatorlashib,  
Ko'chalar ketar toshib.

Naqarot:

Qizlarmiz, o'g'illarmiz,  
Chamandagi gullarmiz,  
Qizlarmiz, o'g'illarmiz.

«Ona qo'llari». Qo'shiqda mehribon ona obrazi nozik so'z matni va yoqimli ohang orqali yoritib berilgan. Qo'shiq 6/8 o'lchovida yumshoq va ta'sirchan sur'atda ijro etiladi. Qo'shiqni o'rgatayotganda teskari zarb bilan bog'liq bo'lgan ayrim qiyinchiliklarni ashulachilarga tushuntirish kerak. Ijroning ritmik holati va amiq kuylanishini ta'minlash uchun ashulachilar bilan ovoz mashqlarini olib borish lozim. Ijroda doira usuli qo'shilganda asarning 6/8 (olti hissali) o'lchovi yengil o'zlashtirib olinadi.

Qo'shiqdagi ikki ovozlik esa ashulachilarga hech bir qiyinchilik tug'dirmagan holda ta'sirli ijro etiladi.

## ONA QO'LLARI

*T. Ilhomov she'ri*

*G'. Qodirov musiqasi*

O'rtacha tez

*p*

*mf*

Ba - hor kel - sa shox - lar - da

Bul - bul - lar - kuy cha - la - di O - na soz ol - sa qo'l - ga, —

A - jib kuy ta - ra - la - di.

Naqarot:

Hor - mang, o - na qo'l - la - ri,

Tol - mang, o-na qo'l - la- ri. Flor mang, o- na qo'l la - ri, Tol mang, ona

qo'l la - ri

Bahor kelsa shoxlarda,  
Bulbullar kuy chaladi.  
Ona soz olsa qo'lga,  
Ajib kuy taraladi.

Naqarot:

Hormang, ona qo'llari,  
Tolmang, ona qo'llari.

Zumrad bahor quyoshi,  
Yashnatar chechaklarni.  
Aziz ona qo'llari,  
Ulg'aytar go'daklarni

Naqarot.

Shoshar bahor suvlari,  
Yerlarni yasatay deb.  
Tinmas ona qo'llari,  
Hayotni bezatay deb.

«Bu yurtning yoshlari». Ushbu ohangdor qo'shiq aniq «bir»ga ega 3/8 dirijorlik sxemasini o'rganishda o'quvchiga yordam beradi.

Asarning xarakteri shundan iboratki, o'qituvchi o'quvchiga ta'lim berishning boshlang'ich davrida foydalanishi mumkin. Qo'shiqdagi faktura bayonining qulayligi, barcha hissalarining inujassamligi, osoyishta harakat va o'ziga xos xushohang kuy, birmuncha sodda ritmik tasvir, kuyni taktning kuchsiz hissasida uza bilish, ularning hammasi dirijorlik texnikasining boshlang'ich inalakalarini to'liq o'zlashtirib olishga imkon beradi.

## BU YURTNING YOSHLARI

H. Muhammad she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

Vals

The musical score is written in 3/8 time and consists of a piano accompaniment and a vocal melody. The piano part begins with a forte (*f*) dynamic and features a rhythmic pattern of eighth and sixteenth notes. The vocal melody enters with a mezzo-forte (*mf*) dynamic and includes the following lyrics:

Dar - yo - lar top - to - za

oq - sa - lar Oq - shom - da ming chi - roq yoq - sa - lar

The score concludes with a final piano accompaniment section.

O - dam - lar ku - li - shib boq - sa - lar \_\_\_\_\_ Bi - ling - ki bu yurt - ning

yosh - la - ri \_\_\_\_\_ Meh - ri - bon, \_\_\_\_\_ sog - o - mon \_\_\_\_\_

Bi ling ki bu - yurt - ning yosh - la - ri \_\_\_\_\_

*f* Tach o - mon bo'l - sa - gar ma - hal - la \_\_\_\_\_ Qo' - shiq - lar yang - ra - sa



ba - ral - la Ta - ral - sa yor - yo - ri al - la - lar

Bi - ling - ki bu yurt - ning yosh - la - ri.

bi - ling - ki bu yurt - ning yosh - la - ri.

Meh - ri - bon \_\_\_\_\_ sog' - o - mon



Bi - ling - ki bu - yurt - ning yosh - la - ri Bi - lim - don.

Tamomlash uchun

g'a - zal - xon Bi - ling - ki bu - yurt - ning yosh - la - ri

Daryolar top-toza oqsalar,  
Oqshomda ming chiroq yoqsalar,  
Odamlar kulishib boqsalar,  
Mehribon, sog'-omon.

Tinch omon bo'lsa gar mahalla  
Qo'shiqlar yangrasa baralla  
Taralsa yor-yori allalar,  
Biling-ki, bu yurtning yoshlari  
Sog'-omon, mehribon.

Keksalar izzatli bo'lsalar  
Onalar shodlikka to'lsalar,  
Gulzorlar yayrashib kulsalar,  
Biling-ki, bu yurtning yoshlari  
Bilimdon, g'azalxon.

Elatlar do'stlikni kuylasa,  
Elchilar ellarni ulasa,  
Odamlar bir-birin siylasa,  
Bilimdon, g'azalxon.

«O'zbekiston — onajon». Asar yengil, xushchaqchaq raqs xarakterida. Qo'shiqning 6/8 hissali sxemasini ikki hissali sxemada dirijorlik qilish talab qilinadi.

Asarni ijro etayotganda qo'shiqning yorqin, yengil xususiyatini ko'rsatib berish zarur. Qo'l dinamik tushlarga amal qilib, tekis harakat qilinadi. O'ng qo'l asarning uzluksiz harakatini ko'rsatayotganda chap qo'l ritm tasviri (ushlab turiladigan notalar)ning aniqligini ta'inlashi, qo'shiq jumllalarining nafisligiga va ularni uzishning aniqligiga erishish kerak.

## O'ZBEKISTON — ONAJON

*Q. Ota she'ri*

*M. Otajonov musiqasi*

**Allegro**



O - na - jon \_\_\_\_\_ O'z - be - kis - ton \_\_\_\_\_

The first system of music consists of a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is written on a single staff with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). It contains the lyrics "O - na - jon" followed by a long horizontal line, and "O'z - be - kis - ton" followed by another long horizontal line. The piano accompaniment is written on two staves (treble and bass clefs) and features a series of chords and moving lines in both hands.

Jo - na - jon \_\_\_\_\_ O'z - be - kis - ton \_\_\_\_\_

The second system of music continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has the lyrics "Jo - na - jon" followed by a long horizontal line, and "O'z - be - kis - ton" followed by another long horizontal line. The piano accompaniment continues with similar chordal and melodic patterns.

O - na - jon \_\_\_\_\_ O'z - be - kis - ton \_\_\_\_\_

The third system of music continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has the lyrics "O - na - jon" followed by a long horizontal line, and "O'z - be - kis - ton" followed by another long horizontal line. The piano accompaniment continues with similar chordal and melodic patterns.

Jo - na - jon \_\_\_\_\_ O'z - be - kis - ton \_\_\_\_\_

The fourth system of music continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has the lyrics "Jo - na - jon" followed by a long horizontal line, and "O'z - be - kis - ton" followed by another long horizontal line. The piano accompaniment continues with similar chordal and melodic patterns.

Ona - jon \_\_\_\_\_ O'z - be - kis - ton \_\_\_\_\_

The fifth system of music continues the vocal line and piano accompaniment. The vocal line has the lyrics "Ona - jon" followed by a long horizontal line, and "O'z - be - kis - ton" followed by another long horizontal line. The piano accompaniment continues with similar chordal and melodic patterns.

Jo - na - jon O'z - be - kis - ton Sa - xo - vat - li

fi - do - kor Dun - yo - da eng bax - ti - yor So - diq - lik - da bo - lang - ga

Ta - nil - gan - san o - lam - ga.

Yer osmonning orasi,  
 Olamning eng sarasi.  
 Avlod meros Vatanim,  
 Ona O'zbekistonim.

Naqarot:

Onajon, O'zbekiston,  
 Jonajon, O'zbekiston.

Saxovatli fidokor,  
 Dunyoda eng baxtiyor.  
 Sodiqlikda bolangga,  
 Tanilgansan olamga.

«Ey, Vatan!». Asar akapella (jo'rsiz xor) uslubida yozilgan bo'lib, u 4/4 hissali sxemada ijro etiladi, u Vatanga mehr va sadoqatni ifodalaydi. Asarni o'rganishda har bir musiqaviy jumlaning boshlanishi alohida ko'rsatib, oxirida «to'rt» da aniq uzish kerak. Asar o'quvchining emotsional badiiy his-tuyg'usini o'stiradi. Bu qo'shiqda birinchi ovozning boshlanishini chap qo'l bilan, keyin ikki qo'lda ko'rsatish o'quvchi uchun qiziqarlidir.

Asar ijrosi ohangdor kenglikni talab qiladi. Birinchi va uchinchi hissalarini sezilarli aniq darajada ko'rsatish kerak. To'xtash va uzilishlarni ikki qo'l hajarishi lozim. Dinamik tuslarini asar davomida saqlab qolish juda muhimdir. Zero, ishoralar aniq va «ehtiyotli» bo'lishi kerak.

## EY, VATAN!

Sh. Salimova she'ri

A. Mansurov musiqasi

**f** **Maestoso**

E-lim deb, yur-tim-deb, yo-nib ya-shay miz!\_ E-lim deb, yur tim deb, yo-nib ya-shay- miz.\_  
E-lim deb, yur-tim-deb, yo-nib ya-shay miz!\_ E-lim deb, yur tim deb, yo-nib ya-shay- miz.\_

Is-tiq-lol qo'-shi-g'in yay-rab bosh lay-miz. Is-tiq-lol qo' shi- g'in yay-rab bosh-lay-miz  
Ey Va-tan! Qal-bing-ni chi-ro-g'i dur-miz Ey Va-tan qal-bing-ni chi-ro g'i-dur-miz

Mus-ta-qil qa-dam ni da-dil tash-lay-miz Mus-ta-qil qa-dam-ni da-dil-tash lay-miz  
Mil-lat-ning mu-saf-fo bu-lo-g'i dur-miz Mil-lat ning mu-saf-fo bu-lo-g'i-dur-miz

Sen o-zod! Sen o-bod!  
Sen o-zod! Sen o-bod! Par-vo zing-ga qa-not-miz par-vo zing ga qa-not-miz

O'z-be-kis-ton! O'z-be-kis-ton E-lim-deb, yur-tim-deb,  
yo-nib ya-shay-miz!\_ E-lim-deb, yur-tim deb, yo-nib ya-shay-miz\_

Elim deb, yurtim deb, yonib yashaymiz!  
Istiqlol qo'shig'in yayrab boshlaymiz.  
Mustaqil qadamni dadil tashlaymiz.  
Ey Vatan, qalbingni chirog'idurmiz,  
Millatning musaffo bulog'idurmiz.  
Sen ozod!, Sen obod!  
Parvozingga qanotmiz, O'zbekiston!  
Elim deb yurtim deb, yonib yashaymiz!



«Ayyomlaring muborak». Asarning shodiyona, yengil, bayramona o'ziga xos xususiyati 4/4 o'lchovda yaxshi «bir» o'quvchi ustida mufassal ishlashga imkon beradi. Bunda o'quvchi o'z harakatini bimalol ko'rib, kuzatib bora oladi. Dirijorlik harakati ko'rsatilgan *allegretto* uslubiga to'g'ri kellihi va bolalar xorining o'ziga xos jarangdorlik xususiyatini kompozitorning maqsadiga mos qilib ifodalashi zarur.

Taktning birinchi, uchinchi hissasida uzilishini aniq ko'rsatish va nafis ishoralar bilan dirijorlik qilish kerak.

## AYYOMLARING MUBORAK!

T. Sodiqova she'ri

Sh. Yormatov musiqasi

*Allegretto*

Jo - nim to'-la su - ru - rim, No - mus - o - r - u g'u - ru - rim

Hu rim - san, o - zo - dim - san! As - li to - za zo - tim - san



4  
z  
a  
a  
n  
i

As - li to-za zo- tim - san

O'z - be - kis - ton

Or - zu- ying-man di-ling - da

